

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 25-aprel dagi
56 - sonli buyrug'iga
ilova

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma

“Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma” (keyingi o'rinlarda - uslubiy qo'llanma) asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichlarining statistik hisobini sifatli yuritish hamda mazkur investitsiyalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy qo'llanmani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi–2008, Xalqaro investitsiya holati va to'lov balansi bo'yicha yo'riqnoma ta'riflaridan foydalanildi.

Mazkur uslubiy qo'llanma, statistika organlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umumiy hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy qo'llanma GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalardir;

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi;

investor – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor, ya'ni tashkilotning to'liq yoki ustav kapitalining 10 foiz va undan ko'proq ulushiga hamda tashkilot boshqaruvida qatnashish huquqiga ega yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalardir;

reinvestitsiyalar – investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlari.

2-bob. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmlarining statistik hisobi

3. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmiga, iqtisodiy faoliyatning barcha turlaridagi bir mamlakatning rezidenti boshqa mamlakat rezidenti ustidan nazorat qiluvchi yoki sezilarli darajada ta'sir ko'rsata oluvchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalarning o'zlashtirilishi kiradi.

4. O'zi joylashmagan hududda yoki ikki va undan ortiq hududlarda amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi, investitsiya obyekti joylashgan hududlar bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

5. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalar, jumladan, ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, geologik qidiruv ishlariga, asosiy chorvani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlardan tashkil topadi. Shuningdek, mazkur ko'rsatkich, texnik va xayriya yordami, ta'sischilarning asosiy vosita sifatidagi badallari, intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

6. Qurilish va loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari (to'lov muddatidan qat'iy nazar) haqiqatda bajarilgan (ishlab chiqarilgan) ishlar hajmi o'lchamida hisobga olinadi. Mashina va uskunalar (montaj talab qiluvchi va talab qilinmaydigan), transport vositalari va boshqa asosiy vositalarni xarid qilishga ketgan xarajatlar, haqiqatda sotib olingan qiymatda (bojxona to'lovlari va yig'implari, vositachi tashkilotlar xizmati, transport va tayyorlash-ombor xarajatlarini qo'shgan holda) belgilangan manzilga tushgandan so'ng va asosiy vositalarni oldi-sotdi dalolatnomasiga asoslanib, buyurtmachi (qabul qiluvchi) tomonidan kirim qilingandan so'ng hamda import uskuna sotib olingan holatda esa – mulkdor o'zgargan vaqtdan so'ng (shartnoma shartlariga asosan) hisobga olinadi.

7. Uzoq siklli ishlab chiqarish hamda ishlab chiqaruvchilar tomonidan oraliq hisob ishlarini talab qiladigan asbob-uskunalar uchun to'lov shakli, buyurtmachi tomonidan asbob-uskuna qismlarining tayyor bo'lganlik darajasi to'g'risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

8. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra quyidagi ishlar va xarajatlar qiymati bo'yicha ajratiladi:

- a) qurilish ishlarining barcha turlari va uskunalarni montaj qilishga;
- b) uskunalar (montaj talab qiladigan va qilmaydigan), asboblari, inventarlar (qurilish qiymatiga kiradigan va kirmaydigan), qurilish qiymatiga kirmaydigan va qurilishga aloqador bo'lmagan mashina va uskunalar sotib olishga;
- v) boshqa kapital ishlar va xarajatlarga.

9. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- a) yangi qurilish;

b) kengaytirish, rekonstruksiya, texnik va texnologik qayta jihozlash, modernizatsiyalash;

d) boshqa yo'nalishlar – geologik qidiruv ishlari, neft, gaz va termal suvlardan foydalanish uchun burg'ulash ishlari, kelgusi yillar qurilishi uchun loyiha-qidiruv ishlari, qurilish bilan bog'liq bo'lmagan va qurilish (yangi qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollantirish, modernizatsiyalash) smetasiga kiritilmagan mashinalar asbob uskunalari, inventarlarni sotib olishga ketgan xarajatlar aks ettiriladi.

10. Asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha amaldagi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi IFUT-2ga asosan taqsimlanadi.

3-bob. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobini yuritishning ma'lumotlar manbai

11. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi quyidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi):

a) oylik ma'lumotlar:

- 12 invest (oylik) "Investitsiya faoliyati to'g'risida kuzatuv" – qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) hamda investitsiya loyihasi ijrochilari (tashabbuskorlari) tomonidan taqdim etiladi;

a) choraklik ma'lumotlar:

- 4 invest (asosiy) shakli (choraklik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" – qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklardan, notijorat tashkilotlardan tashqari) hamda investitsiya loyihasi ijrochilari (tashabbuskorlari) tomonidan taqdim etiladi;

b) yillik ma'lumotlar:

- 1 invest (asosiy) shakli (yillik) "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisobot" – qurilish xo'jalik boshqaruv organlarini qo'shgan holda barcha iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalardan tashqari) tomonidan taqdim etiladi;

- 1 kb shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" – mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etiladi.

4-bob. Statistika hisobotlarida aks ettirilgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichlarini mantiqiy solishtirish tahlili

12. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi, xorijiy kapital ishtirokidagi barcha turdagi korxona va tashkilotlar hisobotlari asosida shakllantiriladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYaDR) asosida mulkchilik shakli kodi 161 - Qo'shma korxonalar mulki, 162 - Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki va 163 - Xorijiy yuridik shaxslar (filiallar va xorijiy firmalar bo'limlari) mulki bo'lgan korxonalardan tashkil topadi.

Korxona va tashkilotlar ustav kapitaliga hisobot yilida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirgan, ammo KTYaDRga tegishli tuzatishlar kiritilmagan holatda, korxona va tashkilotlar bilan statistik tamoyillarga asoslanib, telefon va boshqa aloqa vositalari orqali bevosita bog'langan holda ma'lumotlar aniqlashtiriladi va kiritiladi.

13. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining haqqoniyligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda Markaziy banki ma'lumotlari bilan korxona va tashkilotlar kesimida taqqoslash ishlari o'tkaziladi.

Mazkur holatda, yangi, ya'ni oxirgi ikki yil davomida tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tomonidan o'zlashtirilgan investitsiyalar, korxonaning ustav kapitaliga xorijdan pul ko'rinishida kirib kelgan bo'lsa, Markaziy bank ma'lumotlarida, moddiy aktivlar ko'rinishida kirib kelgan bo'lsa, Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlarida aks ettirilganligi tekshiriladi.

14. Yillar mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi yirik korxona va tashkilotlar bo'yicha, Markaziy bank va Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlarida tegishli ko'rsatkichlar bo'lmasa, 4 invest (asosiy) (choraklik) statistika hisoboti asosida reinvestitsiyalar aks ettirilganligi tekshiriladi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha reinvestitsiyalar 1 kb (yillik) statistika hisoboti asosida aniqlanadi.

15. 4 invest (asosiy) shakli (choraklik) statistika hisobotida aks ettirilgan ko'rsatkichlar, 1 invest (xorijiy) shakli (choraklik) "O'zbekiston Respublikasiga chet eldan kiritilgan investitsiyalar va O'zbekiston Respublikasidan chet elga yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risida hisobot"ida aks ettirilgan ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Bunda 4 invest (asosiy) hisoboti bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar, joriy hisobot davrida hisobot taqdim etgan korxona kapitaliga xorijdan kelib tushgan bo'lsa, 4 invest (xorijiy) hisobotida aks ettirilganligi tekshiriladi.

16. Tekshirishlar jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar yuzasidan, statistik tamoyillarga asoslanib, telefon va boshqa aloqa vositalari orqali bevosita respondentlarga bog'langan holda ma'lumotlarga aniqlik kiritilishi yoki izohlar olinishi mumkin.

17. Yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlar shakllantirilayotganda 12 invest (oylik) statistika hisoboti asosida olingan tezkor ma'lumotlar 1 kb (yillik) statistika hisoboti ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

18. Taqqoslash va tekshirish natijalariga ko'ra asosiy kapitalga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilganligi tasdiqlanmasa, ya'ni:

- boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar o'zlashtirilganligi;
- xorijiy kapital O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan, ammo o'zlashtirilmaganligi;
- xorijiy investorlar mablag'lari hisobiga xorijdan kirib kelgan moddiy aktivlar, asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xom-ashyo, ehtiyot qismlar yoki sotish uchun mo'ljallangan tovarlar ekanligi aniqlansa, hisobot ma'lumotlari jamlanma hisob-kitoblarga kiritilmaydi.

Taqqoslash va tekshirish ishlari namunasi 1- ilovada keltirilgan.

5-bob. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmini shakllantirish

19. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi, yillik va choraklik davriylikda, milliy valyutada va AQSH dollarida, hududlar, investor mamlakatlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida shakllantiriladi. Asosiy kapitalga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini hisoblash va e'lon qilish mexanizmi 2-ilovada keltirilgan.

20. Mazkur ko'rsatkich, jami asosiy kapitalga investitsiyalarninigi moliyalashtirish manbalari tarkibida aks ettiriladi.

6- bob. Yakuniy qoidalar

21. Mazkur uslubiy qo'llanma ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

**“Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy
investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy
qo‘llanma”ga**

1- ILOVA

Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida ma’lumotlarni taqqoslash va tekshirish ishlari namunasi
ming. AQSH doll

T/r	Loyiha tashabbuskori nomi	KTYaDR ma’lumotlari		Jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	Markaziy bank ma’lumotlari: xorijdan kelib tushgan investitsiyalar	Davlat bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari: import qilingan mashina va uskunalar	Reinvestitsiyalar	Izoh
		Mulkchilik shakli kodi	Korxona tashkil etilgan yil					
1	"Example" MChJ	161	2018-y.	10 000	5 000	5 000	-	To‘g‘ri korxona ustav kapitaliga xorijiy investor pul va mashina-uskuna ko‘rinishida kapital kiritmoqda
2	"Example_1" MChJ	161	2006-y.	5 000	-	-	5 000	To‘g‘ri korxona reinvestitsiyalar hisobidan investitsiyalarni o‘zlashtirmoqda
3	"Example_2" MChJ	100	2006-y.	7 000	-	-	-	Noto‘g‘ri korxona o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalarni o‘zlashtirmoqda
4	"Example_3" MChJ	100	2019-y.	12 000	12 000	-	-	To‘g‘ri korxona qo‘shma korxonaga aylanmoqda, Adliya vazirligidan tez kunlarda qayta ro‘yxatdan o‘tadi
5	"Example_4" MChJ	100	2007-y.	3 000	-	3000	-	Noto‘g‘ri korxonanig o‘z mablag‘lari hisobidan import qilingan
6	"Example_5" MChJ	161	2016-y.	8 000	-	8 000	-	Noto‘g‘ri korxona tomonidan xom ashyo import qilingan
...								

**“Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri
xorijiy investitsiyalar hajmini shakllantirish bo‘yicha
uslubiy qo‘llanma”ga**

2 - ILOVA

Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini hisoblash va e‘lon qilish

MEXANIZMI

	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Mas’ullar	Muddati
I bosqich	Elektron statistika hisobotlarini qabul qilish	- Investitsiya dasturiga kirgan loyiha tashabbuskorlari ro‘yxatini shakllantirish va elektron hisobotlarni qabul qilish; - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Investitsiya va tashqi savdo viloyat boshqarmalari tomonidan taqdim etiladigan qo‘shimcha hududiy loyihalar ro‘yxatini shakllantirish va elektron hisobotlarni qabul qilish.	Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalari	Hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay
II bosqich	Hisobot ma’lumotlarini hududlarda birlamchi tahlil qilish	- Hisobot ma’lumotlarini Markaziy bank, Davlat bojxona qo‘mitasi va Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma’lumotlari bilan solishtirish; - Korxonalar bilan telefon vositasida bog‘langan holda aniqlashtirish olib borish; - O‘tgan davr va boshqa tegishli hisobot ma’lumotlari bilan taqqoslash.	Hududiy statistika boshqarmalari	Hisobot davridan keyingi oyning 6-sanasidan kechiktirmay
III bosqich	Barcha investitsiya loyihalari bo‘yicha hisobot ma’lumotlarini tahlil qilish	- Yig‘ma ma’lumotlarni Markaziy bank, Davlat bojxona qo‘mitasi va Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma’lumotlari bilan qayta solishtirish; - Zarur hollarda korxonalar bilan telefon vositasida bog‘langan holda aniqlashtirish olib borish; - Yig‘ma ma’lumotlarni o‘tgan davr va boshqa tegishli hisobot ma’lumotlari bilan taqqoslash; - Nomuvofiqliklar aniqlangan holatda, hududiy boshqarmalar bilan muammolarni hal qilish.	Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalar	Hisobot davridan keyingi oyning 8-sanasidan kechiktirmay
IV bosqich	Jamlanma ma’lumotlarni tayyorlash va e‘lon qilish	- Statistika dasturida belgilangan tahliliy jadval va byulletenlarni tayyorlash hamda tegishli foydalanuvchilarga taqdim etish va Agentlik rasmiy saytida e‘lon qilish; - Boshqa foydalanuvchilar so‘roviga asosan ma’lumotlar tayyorlash va taqdim etish.	Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalar	Hisobot davridan keyingi oyning 2-kuni